

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOV ALISHER NURIDDINOVICH

**O‘SMIRLAR (11-15 YOSH) IRODAVIY SIFATLARINI
SHAKLLANTIRISHDA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINING
ETNOPSIXOLOGIK TA‘SIR MEXANIZMI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024-yil

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Scienses**

Sharipov Alisher Nuriddinovich

О'smirlar (11-15 yosh) irodaviy sifatlarini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodining etnopsixologik ta'sir mexanizmi..... 3

Шарипов Алишер Нуриддинович

Механизм этнопсихологического воздействия узбекского народного устного творчества на формирование волевых качеств подростков (11-15 лет)..... 25

Sharipov Alisher

The mechanism of ethnopsychological influence of Uzbek folk oral creativity on the formation of volitional qualities of adolescents (11-15 years old)..... 49

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMiy KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOV ALISHER NURIDDINOVICH

**O'SMIRLAR (11-15 YOSH) IRODAVIY SIFATLARINI
SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODINING
ETNOPSIXOLOGIK TA'SIR MEKANIZMI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/P318 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborov Azim Meyliqulovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich
psixologiya fanlari doktori, professor.

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ kuni soat____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__»_____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__»_____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari
doktori, professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida qaralmoqda. Butunjahon Sogʻliqni Saqlash Tashkilotining maʼlum qilishicha, dunyo mamlakatlarida yoshlarning psixologik tizimi bilan bogʻliq muammolarni oʻrganish dolzarbligicha qolmoqda. Oilalardagi nosogʻlom muhit, bola tarbiyasiga eʼtiborsizlik, psixikasidagi beqaror rivojlanishlar irodasi zaif oʻsmirlar koʻlamini kengaytirmoqda. Statistik maʼlumotlarda qayd etilishicha, oʻsmirlarda iroda kuchining zaifligi 70% ni, sabr-toqat 56% ni, chidamlilik 20% ni, ishonch 45% ni, matonat 18% ni tashkil etishi aniqlangan. Yoshlar orasida turli qiyinchiliklarni yengolmaslik natijasida, salbiy xatti-harakatlarga yoʻl qoʻyish holatlari kun sayin ortib bormoqda. Bu holatning sababi kundalik muammolar bilan emas, bevosita yoshlarning oʻz his-tuygʻularini boshqara bilmasligi, taʼsirlarga beriluvchanligi kabi omillar bilan ham asoslanadi.

Jahon oliy taʼlim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida oʻsmirlarning irodaviy sifatlarini obyektiv baholash, ularda ong va ixtiyoriy boshqaruvni shakllantirish, oʻzini-oʻzi nazorat qilish, irodaviy va emotsional boshqaruvning oʻzaro munosabatlari, ixtiyoriy xatti-harakatdagi buzilish muammolari psixologik tadqiqotlarning oʻziga xos muhim yoʻnalishi hisoblanadi. Tadqiqotlarda oʻsmir xulq-atvorida irodaviy sifatlar tarkib topishining kognitiv, konativ, assotsiativ determinantlari, irodaviy sifatlar generalizatsiyasining oʻziga xos psixologik xususiyatlari oʻrganilgan. Lekin oʻsmirda irodaviy sifatlarini rivojlantirish, ularni takomillashtirish mexanizmi bilan bogʻliq modelni yaratish va integrativ blokli-chizmasini ishlab chiqish hamda irodasi zaif oʻsmirlar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil qilish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda shaxsning hissiy-irodaviy taraqqiyoti, yoshlarni irodaviy sifatlarini rivojlantirish, boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va samarali yoʻlga qoʻyish uchun zaruriy huquqiy-meʼyoriy asoslari yaratildi: «...yoshlarning maʼnaviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga koʻmaklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash...»¹ ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi muhim ahamiyatlidir. Yoshlarni zamonaviy bilim, yuksak maʼnaviyat egasi etib tarbiyalash, oʻquv samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalariga koʻra ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun mustahkam asos yaratadi. Bu borada yoshlarning oʻzini-oʻzi nazorat qilish, oʻzini-oʻzi boshqarish, murakkab vaziyatlardagi toʻsiqlarni yengishdagi irodasizlik holatining oldini olish, masʼuliyatni oshirish, irodaviy sifatlarini psixokorreksiyaning samarador usullarini yaratish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim masalalar sirasiga kiradi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni/ <https://lex.uz/uz/docs/5793261>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida», 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son «Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda VM-1059-son «Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori hamda sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda iroda muammosining nazariy masalalari, irodaviy sifatlarni rivojlantirish tendensiyalari, irodaviy sifatlarni yoshlar faoliyatida takomillashtirish kabi masalalar respublikamiz olimlaridan Sh.R.Barotov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.Safoyev, E.N.Sattorov, G.Sattorova, I.Xayriyev, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan qisman tadqiq etilganligini kuzatish mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan ham bu sohada ko‘plab izlanishlar olib borilgan. I.V.Gavrulina, Ye.P.Ilin, YE.I.Ignatyev, V.A.Inavnikov, V.K.Kalin, I.V.Morasanov, A.V.Petrovskiy, S.T.Posoxova va M.V.Chumakov va boshqalar iroda akti, iroda kuchi, iroda va irodaviy sifatlarni rivojlantirishning muhim omillari hamda shart-sharoitlari to‘g‘risida o‘z ilmiy izlanishlarida keltirib o‘tganlar.

Xorijiy olimlardan B.Doyle, E.Eydman, Z.Freyd, E.Fromm, A.Maslow, A.Puni, P.Rudik va boshqalar tomonidan iroda va uning determinantlari, irodaviy sifatlarni shakllantirish omillari, ta‘lim jarayonida irodaviy sifatlarning o‘rni va ta‘lim sifatini oshirishdagi roli kabi dolzarb masalalar tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining INF/X21-12 raqamli «O‘quvchi

yoshlarning irodaviy sifatlarini shakllantirish orqali oliy ta'limga kirishlariga ko'maklashish» mavzusi doirasida bajarilgan (2021-2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi o'zbek xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollarni o'smirlar (11-15 yosh) irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi mexanizm sifatida tadqiq etish va ularga amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'smirlar irodaviy sifatlari rivojlanishining darajaviy ifodalanishida differensial farqlar mavjudligini dalillash;

o'smirlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning integrativ blokli-chizmasi asosida o'zbek xalq og'zaki ijodining etnopsixologik ta'sir mexanizmini asoslash;

o'smirlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixokorreksion dasturini ishlab chiqish asosida «chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash bilan iroda kuchining qay darajada» to'g'ri proporsionalligini isbotlash;

o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning etnopsixologik modeli komponentlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Navoiy viloyati G'ozg'on shahridagi 1-, 2-, 3-son umumiy o'rta maktablaridan 211 nafar o'smirlar va Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-, 29-son umumiy o'rta maktablaridan 99 nafar o'smir o'quvchilar tanlandi va jami 310 nafar respondent tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini o'smirlar irodaviy sifatlarini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodi (maqollari)dan foydalanishning tarbiyaviy tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda suhbat, intervyu, M.V.Chumakovning «Shaxsning irodaviy sifatleri» testi (savolnomasi)ning E.G'.G'oziyev tomonidan modifikatsiya qilingan varianti, R.S.Nemovning «Iroda kuchini aniqlash» so'rovnomasi, Ye.P.Ilin va Ye.K.Feshenkoning «Chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash» metodikasi, matematik-statistik (foizli tahlil, faktorli tahlil, Studentning t-mezoni, K.Pirsonning rp-korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodlari) orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'smirlar irodaviy sifatlarini rivojlantirishda "xalq og'zaki ijodi"dan o'quv faoliyati jarayonida foydalanish asosida ularning etnopsixologik xususiyatlar bilan o'zaro aloqadorligi dalillangan;

o'smirlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixokorreksion dasturi: psixokorreksiyaga tayyorgarlik ko'rish, psixokorreksion nazorat, psixokorreksion faoliyatni samaradorligini baholash va uning yakunlovchi bosqichi tizimli amalga oshirilganligi tufayli «chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash bilan iroda kuchining qay darajada» to'g'ri shakllantirishga proporsionalligi asoslangan;

o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning etnopsixologik modeli – iroda kuchining xulqda dinamik ifodalanishiga asoslanib, «etnopsixologik omillar ta'sirida rivojlantirish» va «psixologik aspektlar asosida rivojlantirish» komponentlarini biriktirish orqali takomillashtirilgan;

o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning «fiziologik jihatdan rivojlantirish», «etnopsixologik omillar ta'sirida shakllantirish», «psixologik jihatdan

rivojlantirish» bosqichlariga qarab integrativ blokli-chizmasini ishlab chiqish va tizimlashtirish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smirlar irodaviy sifatlarini konstruktiv shakllantirishga yo'naltirilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan;

o'smirlarda irodaviy sifatlar shakllanishi samaradorligini yana-da oshirish maqsadida o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish takomillashtirilib, unga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning zamonaviy etnopsixologik ta'sir mexanizmi modeli yaratilib, model umumta'lim maktabi psixologlari faoliyatida foydalanishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, qo'llanilgan metodologik bazaning samaradorligi, adekvat metodik tadqiqotlarning amalga oshirilganligi, tadqiqot mobaynida to'plangan ma'lumotlarning dalillanganligi, empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilishning reprezentativligi, jamlangan ma'lumotlarni ishonchliligi, aniqligi, amaliy natijalarning miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashda matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llanilganligi hamda olingan natijalarni amaliyotga tatbig'ining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Natijalar matematik statistika metodlarini samarali qo'llashga imkon beruvchi «SPSS-22» dasturlari vositasida qayta ishlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'smirlar irodaviy sifatlarini rivojlantirish muammosini o'rganishdan olingan empirik natijalar, ya'ni o'smir o'quvchilar irodaviy sifatlarining shaxslilik hamda individual xususiyatlari, asab tizimi va temperament xususiyatlari bilan o'zaro bog'liq kechishiga doir psixologik ma'lumotlar – ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, psixodiagnostika, psixologik konsultatsiya va psixokorreksiya sohalarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va ular asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar, xulosalar va tadqiqotning metodik apparati maktab psixologlarining o'smir shaxsida irodaviy sifatlarini shakllanganlik darajasini tashxis qilish, ular xulq-atvorida namoyon bo'luvchi irodasizlik bilan bog'liq holatlarni psixokorreksiyalash ishlari samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'smirlar irodaviy sifatlarini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodining etnopsixologik ta'sir mexanizmini tadqiq etish asosida:

o'smirlar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning darajaviy ifodalanishida «xalq og'zaki ijodi»ni o'quv faoliyatida integrativ etnopsixologik xususiyatlar bilan bog'liq differensial farqlarning mavjudligi dalillangan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-103-sonli buyrug'iga asosan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-103-a-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, o'smirlar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning darajaviy ifodalanishini aniqlashga erishilgan;

o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarini shakllantirishning etnopsixologik modeli iroda kuchining xulqda dinamik ifodalanishiga asoslanib, «etnopsixologik omillar ta'sirida rivojlantirish» va «psixologik aspektlar asnosida rivojlantirish» komponentlarini birlashtirish orqali takomillashtirilgan ma'lumotlar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-103-sonli buyrug'iga asosan «Umumiy va ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023- yil 28-dekabrda PM-103-a-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qo'llanilishi natijasida amaliyotchi psixologlar o'smirlarda «chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash bilan iroda kuchining qay darajada» to'g'ri shakllantirishga proporsionalligi asoslangan ilmiy-metodik ta'minotni boyitilishiga erishilgan;

o'smirlarda irodaviy sifatlarini rivojlantirishning psixokorreksion dasturi ya'ni tayyorgarlik ko'rish, psixokorreksion nazorat, psixokorreksion faoliyatni samaradorligini baholash va yakunlovchi bosqichlari tayyorlanganligi tufayli «chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash va iroda kuchining qay darajadali»ni shakllantirishga to'g'ri proporsional ekanligi asoslanganligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-103-sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-103-a-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbig'i orqali markaz xodimlari va amaliyotchi psixologlar uchun yaratilgan psixokorreksion dastur o'smirlarning irodaviy sifatleri bilan bog'liq muammolarni yechimini topishga imkoniyat yaratgan;

o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarini shakllantirishda «fiziologik jihatdan rivojlantirish», «etnopsixologik omillar ta'sirida shakllantirish», «psixologik jihatdan rivojlantirish» bosqichlariga qarab, integrativ blokli-chizmani ishlab chiqish va tizimlashtirish mumkinligi asoslanganligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 22-dekabrda PM-103-sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023-yil 28-dekabrda PM-103-a-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi markazning mutaxassis psixologlari o'quv faoliyatida o'smirlar irodaviy sifatlarini shakllantiruvchi integrativ blokli-chizmaga doir ma'lumotlar ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«O'smirlarda (11-15-yosh) irodaviy sifatlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida iroda va irodaviy sifatlar masalasi psixologiya fanining tadqiqotlari predmeti ekanligi, xorijiy hamda mamlakatimiz olimlarining iroda psixologiyasi, irodani shakllantirish yuzasidan ijtimoiy-psixologik hamda irodaviy sifatlarni tarkib toptirish muammosi borasidagi qarashlari tahlilga tortilgan.

Irodaviy sifatlarni rivojlantirish muammosi kam sonli mutaxassislar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bobda Ye.P.Ilin, Ye.I.Ignatev, V.A.Inavnikov, M.V.Chumakov, I.V.Gavrilinalarning izlanishlari misolida masalaga chuqur yondashilgan. Mazkur tadqiqotlarda o'smir o'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatish usullarini tanlash, psixologik maslahat ishlarini tashkil etish, o'smir shaxsida irodaviy sifatlarni shakllantirishni konseptual tizimlashtirish, irodani o'quv jarayonida psixologik jihatdan shakllantirish masalalari tadqiqi bayon etilgan hamda iroda kuchi yuzasidan ilmiy xulosalar tizimli tahlil qilingan.

Mamlakatimiz olimlari M.G.Davletshin, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, E.G'.G'oziyev G'.B.Shoumarovlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda, o'smirlar psixologiyasi, uning tuzulishi, irodaviy sifatlarni shakllantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish masalasiga va irodasi zaif o'smirlar bilan olib boriladigan kompleks tadbirlar to'risidagi qarashlari yoritilib, xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida irodani rivojlantirish borasida zarur ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«O'smirlarda irodaviy sifatlar shakllanganlik holatini o'rganishning empirik tahlili»** ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asosi va metodikalarning mazmun-mohiyati hamda ularning qo'llanish bosqichlari asosli yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida olingan natijalar empirik dalillarga tayanib yoritib berilgan.

O'smir o'quvchilarning irodasini o'rganish, ilmiy jihatdan tahlil etish va uning salbiy rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy-etnik omillarini aniqlash muammosi o'z yechimini kutayotgan masala hisoblanadi. Shuni inobatga olib, o'smir yoshlar orasida ularga xos irodaviy sifatlarning rivojlanganlik holatini o'rganish, ular irodasini

zamonaviy me'yorlar darajasida rivojlantirish tadqiqotning obykti sifatida belgilandi. Tadqiqotimizda Navoiy viloyati G'ozg'on shahridagi 1-, 2-, 3-maktabdan jami 211 nafar va Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-, 29-maktablardan 99 nafar o'smir o'quvchi tanlandi va jami 310 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Jumladan, Navoiy viloyatidan 211 nafar, Qashqadaryo viloyatidan 99 nafar sinaluvchi o'smir o'quvchilar tajriba tadqiqotlarida qatnashdilar (1-jadval). Ular ikki guruhga – tajriba guruhiga (7 ta sinf– 190 nafar o'smirlar) va nazorat guruxiga (5 ta sinf – 120 nafar o'smirlar) ajratilib tadqiqotlar olib borildi. Tajribalar har bir sinfda alohida, lekin bir xil tartibda o'tkazildi. Dastlabki tajriba ishlari ikkala guruhda (tajriba va nazorat guruhlarida) bir davrda o'tkazildi (tajribagacha). Keyinchalik tadqiqot ishlari tajriba guruhida (7 ta sinf – 190 nafar o'smirlar) muntazam olib borildi. Tajriba guruhining natijalari esa nazorat guruhi natijalariga muntazam qiyoslab borildi.

1-jadval

Respondentlar haqida umumiy ma'lumot

Tadqiqot obykti	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
Navoiy viloyati	124	87	211
Qashqadaryo viloyati	66	33	99

Tadqiqotning birinchi bosqichida M.V.Chumakov «Shaxsning irodaviy sifatleri» testi (savolnomasi)ning E.G'.G'oziyev tomonidan modifikatsiya qilingan variantidan foydalanilgan. Dastlab sinaluvchilarda irodaviy sifatleri rivojlanganlik darajasini o'rganish maqsadida M.V.Chumakovning «Shaxsning irodaviy sifatleri» testidan foydalanildi va tadqiqot natijalari quyidagicha namoyon bo'lgan.

2-jadval

Shaxs irodaviy sifatleri darajalarining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari (Styudentning t-mezoni bo'yicha) (n=310)

Shkalalar	Tajriba guruhi (n=190)			Nazorat guruhi (n=120)		
	Guruh	M	p	Guruh	M	p
Irodaviy mas'uliyatlilik	Navoiy	4,43	0,10	Navoiy	5,69	0,12
	Qashqadaryo	3,59		Qashqadaryo	3,65	
Jur'atlilik	Navoiy	5,49	0,003***	Navoiy	5,78	0,003***
	Qashqadaryo	3,66		Qashqadaryo	4,06	
Matonatlilik	Navoiy	5,90	0,005***	Navoiy	5,97	0,005***
	Qashqadaryo	4,55		Qashqadaryo	4,96	
Qat'iylik	Navoiy	3,86	0,09*	Navoiy	4,68	0,15
	Qashqadaryo	4,92		Qashqadaryo	5,02	
G'ayratlilik	Navoiy	3,73	0,005***	Navoiy	4,51	0,004***
	Qashqadaryo	2,60		Qashqadaryo	3,06	

Izoh: *-p ≤0,05 ***-p ≤0,01 ****-p ≤0,001.

O'smirlarda irodaviy sifatleri shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ularda irodaviy sifatleri namoyon bo'lishida o'qish jarayonida yuzaga keladigan turli xil muammo,

qiyinchilik va to'siqlarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar ularda irodaviy sifatlarning qanday namoyon bo'lishiga (o'zgarishiga) sabab bo'lishi mumkin. O'smirlardan olingan natijalar irodaviy sifatlarning metodikasi bo'yicha ularning ko'rsatgan natijalari o'zlashtirgan bilim-malakalarning kelgusi kasbiy faoliyatida samarali qo'llashini anglatadi. O'smir o'quvchilar birinchi shkala bo'yicha irodaviy mas'uliyatlilik 4,43-3,59 omili bilan alohida xarakterlangan. Bundan ko'rinadiki, o'smirlarda mas'uliyatlilik shkalasi standart ball ko'rsatkichi bo'yicha o'rtachadan yuqori ekanligini namoyon qilgan. Nazoratning ichki lokallashtirishiga xos o'smirlar maqsadga erishish yo'lida mas'uliyat yoki javobgarlikni his etadilar, o'zini-o'zi tahlillash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quv tarbiya jarayonida shaxsda lokallashtirishning har ikkala (eksternal, internal) turini shakllantirish tufayli o'smirning mustahkam shaxsiy fazilatiga aylantirish mumkin.

Navbatdagi shkala jur'atlilik bo'yicha 5,49-3,66 miqdor bilan o'rtachadan yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi. Jur'atlilik shkalasining barqarorligi o'smirlarda ta'limga nisbatan matonat va mas'uliyatlilik sifatlarining barqarorligini bildiradi. Shuni ham eslash o'rinliki, shaxsda ichki motivlar kurashining paydo bo'lishi uchun unga mas'uliyat, javobgarlik hissining yuklatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug'ilishi, mazkur vaziyatda shubhalanish, ikkilanish uyg'onishi favqulodda o'smirda irodaviy zo'r berishlar vujudga kelishi lozim. Bu voqelikni tushuntirish yoki izohlash uchun psixologik nuqtayi nazardan iroda aktining tarkiblardan iborat ekanligini aniqlash uchun uning unsurlari, bo'linmalari, tuzilishi to'g'risida mulohaza yuritish joiz hisoblangan.

O'smirlarda matonatlik shkalasi bo'yicha ko'rsatkich 5,89 - 4,54 daraja bilan o'zaro farqlangan. Bu ko'rsatkich standart ball bo'yicha yuqori ekanligini bildiradi. O'smir o'zining ruhiy holatini o'zgartirishga qaror qiladi, qondirilishi lozim bo'lgan ehtiyojlarini muayyan tartibga keltiradi, ularni birlamchi va ikkilamchi darajalarga ajratishni lozim topadi. Navbatdagi shkala qat'iylik shkalasi bo'yicha o'smirlarning natijalari 3,86 - 4,92 natija bilan o'rtacha ekanligini namoyon qildi. Bu esa, ularda kelajakda o'quv faoliyatiga tayyorligi va barqaror shaxs sifatlari shakllanganligidan darak beradi. Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishish yo'l-yo'riqlari haqiqatdan ham aniq istaklarning ushaliyishiga xizmat qilishi to'g'risida oqilona qarorga kelishda o'z ifodasini topadi. Psixologik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tanlangan harakatlar oqilona, omilkor, odilona ekanligi to'g'risida qarorga kelinganida, maqsadga muvofiqligi ishonchli dalillar ustiga qurilganida ushbu jarayon qiyinchiliklarsiz sodir bo'ladi. Oxirgi shkala g'ayratlilik bo'yicha o'smirlar natijalari 3,73 - 2,60 farq bilan yuqori natijani aks ettirdi. Qaror qabul qilish va uni amalga oshirishda qiyinchiliklarni bartaraf etish, irodaviy zo'r berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat psixologik holatlarda inson tomonidan qarorga kelish o'z ehtiyojlarining ustuvorligi darajasi ta'sirini zaruriy chora tariqasida yengish bilan uyg'unlashgan, jiddiylik, zo'riqish xususiyatli ichki zo'r berish jarayoni bilan uzviy bog'liqlikka ega (2-jadval).

O'smirlarda irodaviy sifat hisoblangan chidamlilikni o'rganish maqsadida Ye.P.Ilin va Ye.K.Feshenkoning «Chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash»

so'rovnomasidan foydalanildi va u orqali olingan dastlabki statistik natijalar tahlili to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

3-jadval

Ye.P.Ilin va Ye.K.Feshenkoning «Chidamlilik bo'yicha o'zini-o'zi baholash» so'rovnomasi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar (Styudentning t-mezone bo'yicha) (n=310)

Shkala	Tajriba guruhi (n=190)			Nazorat guruhi (n=120)		
	Guruh	M	p	Guruh	M	p
Chidamlilik	Navoiy	4,1	0,06	Navoiy	4,3	0,09
	Qashqadaryo	3,2		Qashqadaryo	3,7	

Izoh: *-p≤0,05, **-p≤0,01, ***-p≤0,001.

O'smirlarda chidamlilik irodaviy sifatni baholashning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi «chidamlilik» shkalasi bo'yicha o'rtachani tashkil etganligi kuzatildi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'smirlarda irodaviy faoliyatning bevosita motivi tariqasida harakatlar tizimini vujudga keltiruvchi, ularni tartibga soluvchi omillar rang-barang vaziyatlar, sharoitlar sifatida namoyon bo'ladi. O'smir yoshlar sinf jamoasi bilan hamkorlikda ishlashga moyil bo'lishadi, lekin ko'pincha o'smirlarda jamoada yoki boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarda ishonchlari biroz sustligi tufayli ular hamkorlikda ishlashga qiynalishi kuzatiladi (3-jadval).

Tadqiqotning yakuniy bosqichida o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarning qay darajada rivojlanganligini o'rganish maqsadida R.S.Nemovning «Iroda kuchini aniqlash» so'rovnomasidan foydalanildi va undan olingan natijalar tahlili quyidagicha namoyon bo'ldi, 4-jadvalga qarang.

4-jadval

R.S.Nemovning «Iroda kuchini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari (Styudent t-mezone bo'yicha)

Shkalalar	Tajriba guruhi (n=190)			Nazorat guruhi (n=120)		
	Guruh	M	p	Guruh	M	p
Irodangiz kuchsiz darajada	Navoiy	41,63	0,17	Navoiy	39,68	0,18
	Qashqadaryo	38,51		Qashqadaryo	40,59	
Irodangiz o'rta darajada	Navoiy	44,69	0,004***	Navoiy	42,81	0,004***
	Qashqadaryo	42,93		Qashqadaryo	43,11	
Irodangiz yuqori darajada	Navoiy	39,47	0,13	Navoiy	41,97	0,17
	Qashqadaryo	41,31		Qashqadaryo	39,69	

Izoh: *-p ≤ 0,05, **-p ≤ 0,01, ***-p ≤ 0,001.

O'smirlik yoshidagi o'quvchilarda psixologik omillarni amaliy jihatdan tadqiq qilishda irodaviy sifatlarni o'lchashga xizmat qiluvchi so'rovnoma va metodikalardan foydalanildi. Shu jihatdan olib qaralganda o'smirlarning o'qish va ijtimoiy hayotida turli xil qiyinchiliklarga duch kelishi, bunday holatlarni murakkab kechishi, maktab ma'muriyati va o'quvchilar bilan shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda nostandart vaziyatlardan tez va oson chiqa olishida intellektual sifatlarni yordam

beradi. O'smir o'quvchilarda birinchi shkala, ya'ni irodangiz kuchsiz darajada ekanligi 41,63-38,51 miqdor bilan o'rtachaga yaqin natijani namoyon qildi. Bu o'smir o'quvchilar irodaviy sifatlarni taqozo etadigan yosh bosqichiga endilikda qadam qo'ygani, tengdoshlari bilan munosabatlarni yo'lga qo'yib boshlagani, turli xil qiyinchiliklarga duch kelishi, berilgan topshiriqlarni bajarishda noqulayliklarning vujudga kelishi, dars mashg'ulotlariga tayyorgarlikning muntazam ravishda oshib borishi va o'qituvchilarning topshiriqlarni so'zsiz ravishda bajarish zarurati kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shaxsning irodaviy faoliyati o'z oldiga qo'ygan anglangan maqsadlarini bajarish va amalga oshirishdan iborat sodda shakldagi harakatlarning majmuasidan iborat emas. Irodaviy faoliyat o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o'z oldiga qo'ygan va unga muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlariga o'zi uchun kamroq qiymatga molik xatti-harakat motivlarini bo'ysundiradi. Ustuvor motivlar qo'shimcha yordamchi motivlarni muayyan yo'nalishga safarbar qilib, umumiy maqsadga xizmat qildiradi.

Navbatdagi «irodangiz o'rta darajada» shkalasi bo'yicha o'smirlarda 44,69-42,93 o'rtacha ko'rsatkichni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich darajaning ham o'smirlarda mavjudligi, sheriklarida kuzatiladigan turli xil emotsional holatlar o'zgarishi ularga bevosita o'z ta'sirini o'tkazishini ifodalaydi. Shu jihatdan dars mashg'ulotlarida jamoaviy «men» ning ustunligi o'smirlarda ijtimoiy-irodaviy sifatlarni shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Keyingi «irodangiz yuqori darajada»gi shkalaga ko'ra, o'smirlarda kayfiyat shkalasi bo'yicha olgan natijalari 39,47-41,31 darajani namoyon qildi. Bu esa, o'smirlarda irodaviy sifatlarni ular hayoti davomida yuzaga keladigan agressiv reaksiyalar bilan bog'liqligini ifodalaydi. Bunday holatda o'smirlarda jahldorlik, sabrsizlik, nima bo'lishidan qat'i nazar belgilangan maqsadga erishish istagi paydo bo'lishi kuzatiladi. Bu turdagi shaxslar frustratsion to'siq yuzaga kelgan paytda buni vujudga kelgan vaziyatning ta'siri deb tushunadi hamda bu vaziyatda omadsizlikka uchrab qolishsa o'zidan boshqa barchani ayblaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan empirik tahlillar quyidagicha namoyon bo'ldi.

5-jadval

«Irodangiz qay darajada» tarkibiy qismlari bilan irodaviy sifatlarni o'rtasidagi aloqadorlik ko'rsatkichlari (n=310)

Irodangiz qay darajada. Uning bosqichlari	Shaxsning irodaviy sifatlari								
	mas' uliyatlik	tashabbuskorlik	Jura' ttilik	mustaqillik	matonatlik	qat' iyatlik	g' ayratlik	e' tiborlik	maqsadga intiluvchanlik
Kuchsiz darajada	0,54**	0,11	0,91**	0,43**	0,07	0,02	0,54**	0,36**	0,57
O'rta darajada	0,37	0,11	0,94*	0,46**	0,55**	0,51**	0,31	0,20	0,58**
Yuqori darajada	0,38**	0,57**	2,44	3,37	1,48	0,79**	1,57	0,41**	0,75**

Olingan empirik ma'lumotlar asosida irodangiz kuchsiz darajada tarkibiy qismlari va irodaviy sifatlar o'rtasida ma'lum bir korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi. Jumladan, ijtimoiylashuv jarayonida irodaning kuchsizlik shkalasi bilan mas'uliyatlilik ($r=0,54$; $p\leq 0,05$), jur'atlilik ($r=0,91$; $p\leq 0,01$), mustaqillik ($r=0,43$; $p\leq 0,05$), g'ayratlilik ($r=0,55$; $p\leq 0,05$), e'tiborlilik ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) sifatlari o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Bu esa ijtimoiylashuv jarayonida o'zini-o'zi nazorat qila oladigan o'smirning mazkur sifatlar kerakligi bilan muhim ahamiyat kasb etar ekan.

O'smir shaxsida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish uchun irodaviy sifatlardan jur'atlilik ($r=0,94$; $p\leq 0,01$), mustaqillik ($r=0,46$; $p\leq 0,05$), matonatlilik ($r=0,55$; $p\leq 0,05$), qat'iyatlilik ($r=0,51$; $p\leq 0,05$) hamda maqsadga intiluvchanlik ($r=0,58$; $p\leq 0,05$) kabilar zarur aloqadorligi ahamiyatli darajani tashkil qiladi. Irodasi o'rta darajada rivojlangan o'smirlarda emotsional jarayonlar ijobiy yoki salbiy hislarni qamrab olganligi sababli, o'smirlar emotsional sohasining irodaviy sifatlar bilan bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi.


Tadqiqotda maqsadga intiluvchanlik, matonatlilik, qat'iyatlilik kabi irodaviy sifatlar ham irodaning qay darajada rivojlanganligini ta'minlovchi mexanizmlardan hisoblanadi. Shu bois, o'smirning yuzaga keladigan emotsional zo'riqishlar, affektlar, stress, xavotirlanish, qo'rquv holatlarini yengib o'tishda irodaning u yoki bu sifati hamda rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv faoliyati jarayonida irodaning yuqori darajada rivojlanishi shkalasi bilan mas'uliyatlilik ($r=0,38$; $p\leq 0,05$), tashabbuskorlik ($r=0,56$; $p\leq 0,05$), e'tiborlilik ($r=0,41$; $p\leq 0,05$), qat'iyatlilik ($r=0,79$; $p\leq 0,05$), maqsadga intiluvchanlik ($r=0,75$; $p\leq 0,01$) kabi xususiyatlar o'zaro uzviy bog'liqligi aks etdi. O'smir shaxsida irodaning yuqori darajada rivojlanganlik xususiyatlari o'z oldiga qo'yilgan maqsad sari intilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita, o'smirning o'z maqsadlariga erishishda irodaviylik, dadillik, jur'atlilik kabi shaxsiy sifatlarning o'rni muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu irodaviy sifatlar o'quv faoliyati jarayonida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u shaxslararo munosabatlarda va turli xildagi vaziyatlar bilan ishlash imkoniyatini oshiradi.

Yuqoridagi jadvalda aks etgan natijalardan ham ko'rish mumkinki, o'smirlarda iroda kuchi shkalalari bilan tashabbuskorlik sifati ($r=0,67$; $p\leq 0,01$) o'zaro uyg'unlik kasb etadi. O'smir shaxsiga xos bo'lgan jihatlardan yana biri, o'quv faoliyati jarayonida ularning kreativligi va tashabbuskorligidir. Shuningdek, o'smirlarda ijtimoiylashuvning yuqori shakllanganligi va har qanday topshiriqni tezkor, aniq, ma'suliyat bilan bajarishi natijasida, mas'uliyatlilik ($r=0,48$; $p\leq 0,05$) bilan o'zaro bog'liqliq yorqin ifodalangan. Ularda o'quv faoliyati davomida irodaning qay darajada rivojlanganligi omillari bilan e'tiborlilik ($r=0,45$; $p\leq 0,05$) (har qanday vazifalarni bajarish jarayonida har bir elementlarga va qismlarga nisbatan e'tiborli bo'lish zarurati tufayli), matonatlilik ($r=0,44$; $p\leq 0,05$) (jarayonda yuzaga kelayotgan notipik holatlarda, psixologik to'siqlarni yengish jarayonida irodaviy sifatlarni ko'rsata olish) o'zaro uzviy aloqada ekanligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'smirlarning irodaviy sifatlari o'rtasida o'zaro adekvat munosabatlar shakllangan ekan. Ayni paytda, mas'uliyatlilik, jur'atlilik, mustaqillik, matonatlilik, qat'iyatlilik, e'tiborlilik,

maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlar o'rtasida muhim uzviy bog'liqlik mavjudligi ko'rinib turibdi. Faqatgina tashabbuskorlik va g'ayratlilik xususiyatlarining boshqa irodaviy sifatlar bilan o'zaro aloqadorligi sezilarli farqlarda kuzatilmadi. Shuningdek, bobni yakuniy qismida o'smirlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning integrativ blokli chizmasi ishlab chiqilgan va u quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi, 1-rasmda "O'smirlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning integrativ blokli-chizmasi" keltirilgan.



1-rasm. O'smirlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning integrativ blokli-chizmasi

Unga ko'ra:

1-blok. O'smir shaxsini fiziologik jihatdan rivojlantirish:

- bosh miya tuzulmasini barqarorlashtirish;
- nerv tolalarini assosiativlik xususiyatini rivojlantirish;
- markaziy nerv sistemasi faoliyatini nazorat qilish va takomillashtirish;

2-blok. O'smirlarni ijtimoiy omillar ta'sirida shakllantirish:

- shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- muloqotda barqarorlikni shakllantirish;
- sinf jamoasi o'rtasida munosabatlar yaxshi kechishini ta'minlash;
- ijtimoiy muhitga yuksak moslashuvchanlikni ta'minlash;
- oila a'zolari bilan muomala jarayonini me'yoriy kechishi.

3- blok. O'smirlarni psixologik jihatdan rivojlantirish:

- psixik jarayonlarning o'zaro uyg'un kechishini rivojlantirish;
- motivatsion sohani shakllantirish;
- psixosomotik buzilishlarning oldini olish;
- hissiy barqarorlikni ta'minlash;
- individual xususiyatlarni ijtimoiy me'yorlar asosida tarkib toptirish va boshqalardan iborat.


Olib borilgan mualliflik tadqiqot ishi doirasida bloklar o'rtasidagi integrativ bog'lanishlar uyg'unligi o'smir shaxsida bir vaqtning o'zida irodaviy sifatlarni barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va ta'lim faoliyatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bugungi kunda ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda irodaviy sifatlarni o'rni beqiyos ekanligi ayni haqiqatdir. Shunday ekan, o'smirlarni jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning psixologik jihatdan har tomonlama barkamol shakllanishiga e'tibor qaratish eng muhim va ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning «**O'smirlar irodaviy sifatlarini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodining ahamiyati**» deb nomlangan uchinchi bobda, o'smirlar irodaviy sifatlarini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodining ahamiyatini (o'zbek xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanish tizimini) ilmiy asoslashga harakat qilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodining muhim sohasi o'zbek xalq maqollari o'rganilgan, o'smirlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida misollar va namuna sifatida foydalanishi zarur bo'lgan maqollar to'plandi, tizimlashtirildi va tahlil qilindi hamda ijtimoiy- tarbiyaviy fanlarni o'qitishda ulardan o'rinli foydalanish rejalashtirildi. Shundan so'ng, o'qitish jarayonida foydalanish nazarda tutilgan o'zbek xalq maqollarining quyidagicha tasnifi yaratildi va ularning irodaviy sifatlarni rivojlantirishdagi mohiyati psixologik nuqtayi nazardan talqin qilingan.

O'zbek xalq maqollarining psixologik talqini va uning tub mohiyatini o'rganish hamda anglashga doir tadqiqot ishlari dastlab Navoiy va Qashqadaryo viloyatlaridagi o'rta umumiy ta'lim maktablarining o'smir (11-15 yosh) o'quvchilari bilan o'tkazildi. Tadqiqot ishlarini olib borish uchun asosan 12 ta sinf (jami– 310 nafar o'smirlar) o'smir yoshdagi o'quvchilar jalb etildi. Ular ikki guruhga – tajriba guruhiga (7 ta sinf– 190 nafar o'smirlar) va nazorat guruhiga (5 ta sinf – 120 nafar o'smirlar) ajratilib tadqiqotlar olib borildi. Tajribalar har bir sinfda alohida, lekin bir xil tartibda o'tkazildi. Dastlabki tajriba ishlari ikkala guruhda (tajriba va nazorat guruhlarida) bir davrda o'tkazildi (tajribagacha). Keyinchalik tadqiqot ishlari tajriba guruhida (7 ta sinf – 190 nafar o'smirlar) muntazam olib borildi. Tajriba guruhining natijalari esa nazorat guruhi natijalariga muntazam qiyoslab borildi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalarini asosan uch bosqichdagi tekshiruvlarimiz (qiyoslash) asosida aniqladik. Ular quyidagi (2-rasmda) aks etgan.



2-rasm. «O‘zbek xalq maqollarini bilasizmi?» savoli natijalari.

Ushbu rasmda shu narsa ma’lumki, o‘smir o‘quvchilarning o‘zbek xalq maqollarini bilishi va ulardan namunalar keltira olish holati tadqiqot ishlari boshlanguncha 5 minut ichida (har bir sinfdan) og‘zaki so‘ralganda tajriba guruhidan jami talabalar 78 ta maqolni, nazorat guruhidan esa jami talabalar 55 ta maqolni ayta oldilar.

Tajriba vaqti (bir oydan so‘ng) tajriba guruhi a‘zolari 155 ta, nazorat guruhi a‘zolari esa arang 60 ta maqolni aytdilar. Tajriba yakunida (ikki oydan so‘ng) tajriba guruhi a‘zolari 280 ta, nazorat guruhi a‘zolari esa 66 ta maqolni aytib uddaladilar.

Xuddi shu topshiriq, ya’ni o‘smirlarning o‘zbek xalq maqollarini bilishi va ulardan 5 minut ichida yozma ko‘rinishda yozib topshirishlari so‘ralganda (guruh a‘zolarining har biri individual yozadi va ularni, ya’ni 310 nafar o‘quvchilarni yozgan maqollari to‘planganda) ular tajribagacha tajriba guruhlarida 85 ta, nazorat guruhlarida 62 ta maqolni tashkil etdi. Tajriba vaqti (bir oydan so‘ng) esa tajriba guruhi a‘zolari 170 ta, nazorat guruhi a‘zolari 75 ta maqolni yozma ko‘rinishda yozib berishga ulguridilar. Tajriba yakunida (ikki oydan so‘ng) tajriba guruhi a‘zolari 330 ta, nazorat guruhi a‘zolari esa 82 ta maqolni yozma ko‘rinishda yozib berishga erishdilar. Bundan shu narsa ma’lumki, olib borgan tadqiqotlarimizning tarbiyaviy samarasi yaqqol ko‘zga tashlandi.

Olib borgan tadqiqotlarimizni ilmiy asoslash va samarasini oydinlashtirish maqsadida quyidagicha ko‘rinishdagi tadqiqot ham o‘tkazilgan. Aynan o‘sha tajriba va nazorat guruhi a‘zolariga – o‘zbek xalq maqollarini mazmun-mohiyatini sharhlash (ishtirokchilar % hisobida) topshirig‘i berilganda natijalar quyidagicha bo‘ldi.

